

TENG BOG‘LOVCHILARNING USLUBIY XUSUSIYAT

Cho‘liyev Xabibulla JDPI 205-guruh talabasi,

Ilmiy rahbar: Usmonov Aslam

“Yordamchi so‘zlar” nomi ostiga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama birlashtiriladi. Bulardan ko‘makchini leksemashakl tarkibiga kiramdigani morfema deb, noperadigmatik morfemalar majmui deb baholadik. Demak, grammatik birlik turkumlari deganda avvalo bog‘lovchi va yuklama nazarda tutiladi.¹

Gapda qo‘shma gap sostavidagi ayrim sodda gaplar va uyushgan bo‘laklar orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llaniladigan yordamchi so‘zlar bog‘lovchilar deyiladi.²

Bog‘lovchilar grammatik jihatdan o‘zgarmaydi va mustaqil leksik ma’noga ham ega emas. Bog‘lovchilar o‘zлari bog‘lagan ayrim so‘zlar va ayrim sodda gaplarni o‘zaro qanday munosabatda ekanliklarini, shuningdek, shu munosabatlarning xilini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida bog‘lovchilar yakka yoki takroriy holda qo‘llanadi. Shunga ko‘ra ular ikki xil: yakka bog‘lovchilar va takroriy bog‘lovchilar.

Yakka bog‘lovchilar uyushgan bo‘laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo‘llanadi: va, hamda, ammo, lekin, balki, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, gar, agar, agarda, basharti, chunki, garchi, go‘yo, go‘yoki, -ki, -kim. Oilasi va boshqa bolalari borligi inobatga olinib, yengilroq jazo tayinlandi.(Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

Takroriy bog‘lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o‘rinda gap bo‘laklari bilan, shuningdek, qo‘shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi: dam..., dam, ba’zan..., ba’zan, ham..., ham, bir..., bir, yoki..., yoki, yo..., yo, goh..., goh,

¹ Rahmatullayev Sh, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent, “Universitet” — 2006,121-b

² Shoabdurahmonov.Sh, Asqarova.M, Hojiyev. A, Rasulov. I, Doniyorov.X, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent, “O‘qituvchi”— 1980,424-b

xoh..., xoh. Ayoli bolalarni ko‘rgach, eriga yo u yoki singlisining farzandlari bu uyda qolishini aytib, qichqira ketadi. (Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

Takroriy bog‘lovchilar takrorlangan gap bo‘lagi yoki ayrim gaplarning oldida qo‘llanadi. Takroriy bog‘lovchilariing bir qismi yakka holda ham qo‘llanishi mumkin (yo, yoki). Bu holda ular yakka bog‘lovchi hisoblanadi: Ko‘chadagi yordamga muhtoj begona ham kimningdir ota-onasi, farzandi, aka yoki ukasi, jigari...(Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

Bog‘lovchilar o‘z sintaktik va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra quyidagi sinonimik guruhlarga birlashadi: Biriktiruv bog‘lovchilari: va, hamda (bog‘lovchi vazifasida kelgan bilan ko‘makchisi, ham, -da, -u, -yu yuklamalari). Bu bog‘lovchilar so‘zlar orasidagi teng munosabatni ko‘rsatish bilan birga, ta’kid, kuchaytirish, uyushgan oxirgi bo‘lakni ajratib ko‘rsatish kabi modal ma’nolarni ifodalash bilan bir-biridan farq qiladi³.

Solishtitishimiz mumkinki, Ey Robbim! Otam va onam o‘tkazgan har bir daqiqada ularga rohat eshiklarini och! Asardagi bu gapda va bog‘lovchi tenglikni ifodalamoqda. (Ilhom Qahhorov. O‘qing, faqat yig‘lmang...q)

Odamlar qizaloqning tog‘asi tomonidan nimalar sodir bo‘lganligini aniqlash uchun o‘sha zahoti prokuratura va ichki ishlar organlari tergovchilari hamda sud-tibbiy ekspertini chaqiradilar.Bu yerda esa uyshgan oxirgi bo‘lakni *hamda* bog‘lovchisi orqali ajratib ko‘rsatish ma’nosini ifodalamoqda. (Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

Ayrim bog‘lovchilar ikki va undan ortiq uslubiy paradigmani hosil qilishi mumkin. Bular o‘zaro turli uslubiy bo‘yoqlari bilan farqlanadi: *bilan*, *-ila* (so‘zlashuv) ; *yoxud*, *yoinki* (so‘zlashuv); *yo-a* (so‘zlashuv); *-ki*, *-kim* (arxaik); *agar*, *-gar* (arxaik). Bog‘lovchilarning bunday ko‘rinishlari nutqda sinonim gaplarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Bu tip gaplar, o‘z navbatida, nutqni bezaydi⁴. Masalan, Onaning ko‘z yoshlari ila otilib chiqqan so‘zlari shu bo‘ldi. (Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat

³ E. Qilichev, O‘zbek tilining amaliy stilistikasi.Toshkent, “O‘qituvchi” 1992-yil,78-b

⁴ E. Qilichev, O‘zbek tilining amaliy stilistikasi.Toshkent, “O‘qituvchi” 1992-yil,79-b

yig‘lmang...q) *Ham... ham* biriktiruv bog‘lovchisi ta’kid qo‘sishimcha ma’no bo‘yog‘iga ega, *na...na* esa inkor ma’nosini ifodalaydi, *-mi* so‘roq-taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog‘lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog‘lovchi-yuklama hisoblanadi.⁵

Masalan,“Mijoz degani shunaqa, kutilmaganda yo‘lingdan chiqib qoladi”,—deya boyagi tumonat odamni ham, pichoqlanib o‘lim yoqasida yotgan yaradorni ham unutdi.(Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q) Na tiragini, na o‘ligini topa olmadim. (Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

Biriktiruv bog‘lovchisi *va* eng ko‘p qo‘llanadigan bog‘lovchidir.⁶

va bog‘lovchisi bir gapdagi bir necha uyushgan bo‘laklarning oxirgisidan oldin kelganda, uyushiq bo‘laklar orasidagi teng munosabatni ifodalash bilan birga oxirgi uyushgan bo‘lakni alohida ajratib, ta’kidlab ko‘rsatadi: Dadam paketlarni ochdilar. Menga qora shim, oq yoqalik qora kiyim va qora kalish berdilar. (Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

va bog‘lovchisi qo‘shma gap sostavidagi ayrim gaplarni bir-biriga bog‘laganda:

a) o‘zi bog‘lagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-harakat, voqeа va hodisalarning bir vaqtda bo‘lganini ko‘rsatadi: Men qizimni yaxshi ko‘raman va buni yashirmayapman... (Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

b) ish-harakatning ketma-ket bo‘lganini ko‘rsatadi: Usha kuni ukam yuvilganidan keyin kafanlandi, dadam ilk marotaba, men olaman dedilar va ukamni bag‘irlariga bosdilar. (Ilhom Qahhorov.O‘qing,faqat yig‘lmang...q)

O‘zaro zidlik munosabatida bo‘lgan uyushiq bo‘laklar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lab keluvchi ammo,lekin,biroq bog‘lovchilari zidlov bog‘lovchilari sanaladi.Balki so‘zi ko‘pincha zidlov bog‘lovchisi vazifasida qo‘llanadi. Masalan:

⁵ R.Sayfullayeva,B.Mengliyev,G.Boqiyeva,M.Qurbanova,Z.Yunusova,M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent – 2009,276-b

Bu jarang-jurung ovozlar uning g‘ashini keltirmas, balki xayolini chalg‘itib, unga orom

bag‘ishlardi. (**M. Karim**)

Zidlov bog‘lovchisi ko‘pincha qo‘shma gap qismlarini bog‘laydi, *balki* yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi. *Balki* so‘zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gapda gumon, qarama-qarshilik ma’nosini ta’kidlash uchun qo‘llanadi⁸: -Mashinani joylashtirmay tur, balki kerak bo‘lib qolar... .(Ilhom Qahhorov.O‘qing, faqat yig‘lmang...q). Bu misolda zidlov bog‘lovchisi o‘rnida *balki* so‘zini qo‘llab bo‘lmaydi.

Zidlovchi bog‘lovchilar. Bunday bog‘lovchilar sodda gaplar va bog‘langan qo‘shma gaplarda qo‘llanib, hodisa, ish-harakat yoki biror predmetni boshqasiga zid qo‘yadi va ular orasidagi qarama-qarshi munosabatni bildiradi.

balki bog‘lovchisi predmet, shaxs yoki ish-harakat orasidagi zid munosabatni bildiradi. Gapning umumiyligi ma’nosini kuchaytiradi: *Bu sodiq qul, balki undan battar odam edi.* (0.) Bu qissa nafaqat Misr xalqini, balki jamiyki arab davlatlarida istiqomat qilayotgan millionlab xalqni yig‘latgan va har bir ota va onaning qalbini larzaga solgan qissadir. (Ilhom Qahhorov.O‘qing, faqat yig‘lmang...q)

O‘zbek adabiy tili uchun norma darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lishiga qaramay, a bog‘lovchisi badiiy adabiyot tilida uchramoqda. Bu bog‘lovchi sodda yoki qo‘shma gaplarni bog‘lab, ular orasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi: O‘ktamjon, mening o‘rtog‘im, juda epchil ayol... kotletni u pishirsin-da, a o‘zimizning taomlarimizni — kabob va palovdan tortib, to halimgacha — do’ndirib yuboradi.

Ayiruv bog‘lovchilari.O‘zaro bog‘lanayotgan bo‘lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko‘rsatuvchi bog‘lovchilar ayiruv bog‘lovchilari hisoblanadi. Masalan: yo, yoki, yo ...yo, goh ... goh, dam ... dam, ba’zan ... ba’zan, bir ...bir kabi¹⁰. Masalan, -Tavba, tavba, ikkoviga xam saraton kasali degan tashxis qo‘yishibdi. Shunaqa bo‘lishi mumkinmi? Yo saraton ham yuqarmikan?-yoqa ushlaydi birov. (Ilhom Qahhorov.O‘qing, faqat yig‘lmang...q)

goh..., goh; dam..., dam; bir..., bir; ba'zan..., ba'zan bog‘lovchilari esa, uyushgan bo‘laklarning yoki qo‘shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarning oldida takrorlanib kelib, ularni ayiruv yo‘li bilan bog‘laydi va galma-gallik, almashinib turish ma’nolarini anglatadi¹¹: Og‘ir xursinish bilan hali ham ko‘zлari jovdirab, bir sumkaga, bir o‘g‘lining qo‘liga qarab turgan Mastura xolaga umidlari so‘ngancha tikildi...(Ilhom Qahhorov.O‘qing, faqat yig‘lmang...q)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent, “Universitet”— 2006
2. Shoabdurahmonov.Sh, Asqarova.M, Hojiyev. A, Rasulov. I, Doniyorov.X, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent, “O‘qituvchi” — 1980
3. E. Qilichev, O‘zbek tilining amaliy stilistikasi.Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 1992-yil
4. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova, M.Abuzalova “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - 2009
5. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov,D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov 7-sinf ona tili darslik, Toshkent “Ma’naviyat” —2017
6. M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo’ldasheva, Ona tili,Toshkent-2008

⁹Shoabdurahmonov.Sh, Asqarova.M, Hojiyev. A, Rasulov. I, Doniyorov.X, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent, “O‘qituvchi”— 1980,429-b

¹⁰N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov,D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov 7-sinf ona tili darslik, Toshkent “Ma’naviyat” —2017,95-b

¹¹Shoabdurahmonov.Sh, Asqarova.M, Hojiyev. A, Rasulov. I, Doniyorov.X, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent, “O‘qituvchi”— 1980,430-b